

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

olishdagi katta to‘siqlardan biridir. Bu nafaqat vaqtini o‘g‘irlaydi, balki e‘tiborni bo‘lib yuboradi, intellektual salohiyatni sustlashtiradi. Bu holatga qarshi kurashish uchun yoshlar orasida raqamli gigiyena, ya’ni texnologiyadan foydali foydalanish madaniyatini shakllantirish muhim. Yechim – texnologiyani dushman emas, vosita sifatida ko‘rish. Ilm olishda sun’iy intellektdan izlanish, tahlil, tekshirish uchun foydalanish kerak. Har bir yosh o‘z vaqtini rejalashtirib, axborotni saralay oladigan darajaga yetishi kerak. Bu esa faqatgina ongli tarbiya, yaxshi muhit va samarali ta’lim bilan amalga oshadi.

Xulosa

Ilm olish — bu faqat darsga qatnashish emas, balki hayotni anglash, dunyoni tushunish va o‘z yo‘lini topish yo‘lidir. Jamiyatda ilm olishdagi xatoliklar – onalarning yetarli bilimga ega emasligi, yuzaki o‘qitish tizimi, amaliyotga e‘tibor yetishmasligi va zamonaviy texnologiyalarning noto‘g‘ri qo‘llanilishi orqali yanada chuqurlashmoqda. Yechim esa — har bir bosqichda ongli, amaliy va individual yondashuvni tanlashda. Ota-onalar, ustozlar, ta’lim tizimi va yoshlarning o‘zi birgalikda bu yo‘lda harakat qilsa, jamiyat ilimli, ongli va faol avlodga ega bo‘ladi. Zero, ilm – bu jamiyat yuragining urishidir. Uning ritmi to‘g‘ri bo‘lsa, hayot ham sog‘lom, barqaror va porloq bo‘ladi.

IJODKORNING BADIY MATNDA SO‘Z TANLASH VA QO‘LLASH MAHORATI

Umirova Zamira Turayevna

Qashqadaryo viloyati Yakkabog' tumani

10-umumiy o'rta ta'lim maktabi

2-toifali ingliz tili fani o'qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada badiiy matnda “jonli nutq” yaratish uchun ijodkor tomonidan tanlangan so‘zlarning qo‘llanilish me‘yorlari va ularning o‘ziga xos individual uslubi haqida yoritilgan. Badiiy matnda so‘z tanlash va qo‘llash asarning ta’sirchanligini belgilab beruvchi muhim omildir. So‘zlarning semantik va stilistik tomonlarini hisobga olib, ularni to‘g‘ri qo‘llay olish matnning obrazli chiqishini ta’minlab beradi. Maqolada so‘z boyligi, uslubiy moslik, ifoda vositalaridan unumli foydalanish tahlil qilinadi.*

Tayanch so‘zlar: *badiiy mahorat, individual uslub, mahorat, emotsional-ekspressiv so‘zlar, badiiy mahorat.*

Аннотация: *В статье описываются правила употребления слов, выбранных художником для создания «живой речи» в художественном тексте, и их специфический индивидуальный стиль. Выбор и употребление слов в художественном тексте является важным фактором, определяющим эффективность работы. Учет семантической и стилистической стороны слов, умение правильно их использовать обеспечивает*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

выразительность текста. В статье анализируется лексика, стилистическая сочетаемость, эффективное использование выразительных средств.

Ключевые слова: *художественное мастерство, индивидуальный стиль, мастерство, эмоционально-экспрессивное слово, художественное мастерство.*

Annotation: *The article describes the rules for the use of words chosen by the artist to create "living speech" in a literary text, and their specific individual style. The choice and use of words in a literary text is an important factor that determines the effectiveness of the work. Taking into account the semantic and stylistic aspects of words, being able to use them correctly ensures the expressiveness of the text. The article analyzes vocabulary, stylistic compatibility, effective use of means of expression.*

Key words: *artistic skill, individual style, skill, emotionally expressive word, artistic skill.*

Badiiy asar lingvistik jihatdan qamrovdor bo‘lib, unda umumxalq tilida mavjud barcha lug‘aviy vositalar qo‘llanilib, ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati natijasida ta’sirchan, obrazli fikr ifodalash sari yo‘naltirilgan bo‘ladi. So‘z badiiy asarning asosiy materiali, badiiy asarda so‘zlar orqali obrazlar yaratiladi, inson ongida olamning manzarasini umumlashgan holda aks ettiradi. So‘zdagi eng muhim xususiyatlar, alohida jihatlar badiiy matnlarda namoyon bo‘ladi. Badiiy matnda har qanday so‘z tasviriylikka ega bo‘lishi mumkinki, bu so‘zning tasviriyl imkoniyati kengligini ko‘rsatadi. Biroq so‘zning keng imkoniyatini amalga oshirishining asosiy talablaridan biri so‘zning nutqda tanlab qo‘llanishidir. Badiiy matnlarda so‘z qo‘llashdagi muhim holatlardan biri normadan uzilganidir. So‘z qo‘llashda normadan chetlashish badiiy nutqning badiiy-estetik mohiyatini namoyon etuvchi muhim jihati, estetik ta’sir kuchini oshiruvchi asosiy vosita.

Badiiy matnda so‘zlarni tanlash va qo‘llashda quyidagilarga ko‘plab amal qilinganini ko‘rishimiz mumkin.

1.Ifodalanmoqchi bo‘lgan fikrning mohiyatiga mos tushadigan, ma’noni aniq va tushunarli tarzda ifoda etadigan so‘zni topish va o‘z o‘rnida ishlatish.

2.Ifodada jimjimadorlikdan qochish, oddiy xalqona tarzda qabul qilinadigan jumlar orqali fikrni ifodalash. Buning uchun esa asosan umumxalq tomonidan qo‘llaniladigan, ma’nosini barcha tushunadigan so‘zlarni tanlash.

3.Fikrni badiiy bo‘yoqlarda ifodalash maqsadida so‘zning ma’no nozikliklaridan, badiiy serbo‘yoqligidan foydalanish.

4.Nutqda ta’sirchanlikni ta’minlashga xizmat qiladigan emotsional-ekspressiv so‘zlarni nutq yo‘nalishiga mos qo‘llash.

5.Sinonimlarning ma’noni turli darajada, har xil bo‘yoqlarda ifodalash imkoniyatlaridan unumli foydalanish.

6.So‘zlarning turli ma’no ifodalash xususiyatlaridan o‘rinli foydalanish.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

7. Shaklan badiiy til normalariga mos kelmaydigan, biroq badiiy ta’sirchanlikni uyushtirishda keng imkoniyatga ega bo’lgan lug’aviy vositalarni tanlash.

So’zning boshqa so’zlar bilan birikib ma’no ifodalashi badiiy nutqning muhim jihati, so’z shu jihati bilan nutqning jozibadorligini, rang-barangligini uyushtiradi. Lug’aviy vositaning ifodadorlik ko’lami boshqa lug’aviy vosita bilan ma’no va mantiq jihatdan bog’lanishiga ko’ra kengayadi. So’zlar lug’aviy ma’nodan tashqari matnda qo’shimcha ma’no ham ifodalaydi va shu ma’nolariga ko’ra uslubiy imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Nutq uslublari orasidagi doimiy aloqa tufayli ma’lum nutq turiga xoslangan so’z boshqa nutq turiga o’tadi. Badiiy nutqda so’z qo’llanishi va so’zning rang-barang xususiyatlarini namoyon bo’lishi so’z bilan so’zning ana shunday bog’liqligi, munosabati asosida ochiladi. Bu hol nutqda muayyan so’zni qo’llashda nutqdagi boshqa so’zlarning talabi ham muhim ekanligini ko’rsatadi. Chunki har qanday so’zning matnda qo’llanilishi yozuvchi uslubi bilan bog’liq, so’zning ma’no qirralari va uslubiy imkoniyatlarining namoyon bo’lishi matnga bog’liq. Har qanday matn tuzilishi, unda lug’aviy va uslubiy vositalarning qo’llanilishi jihatidan matn tuzuvchining individual uslubiga xosligini namoyon etadi. Yozuvchining individual uslubi badiiy mahoratining asosini tashkil etadi. Individual so’z qo’llash mahorati orqali badiiy asarning mohiyati ochiladi va badiiy ta’sirchanlik vujudga keladi. Shunga ko’ra, ijodkorning badiiy mahorati, birinchi navbatda, til vositalaridan badiiy fikr ifodalash jarayonida maqsadga muvofiq foydalanishi bilan belgilanadi. Masalan, Murod Muhammad Do’sst asarlari so’z qo’llashdagi individuallikni namoyon etuvchi muhim manbalardan hisoblanadi. Bu holatni yozuvchi ijodida bir holatning bir necha lingvistik vositalar orqali ifodalanishi misolida ham kuzatish mumkin. Jumladan, inson ruhiy holatini anglatuvchi xursandchilik, xafalik holatlarini ifodalashda yozuvchi o’ziga xos individual ifodalar qo’llaydi. Masalan, – Bo’ldi, Toshpo’lat aka, bas qila qoling, deya achchiqlangan bo’ldi Zamira, lekin jahli chiqmadi, lablariga qo’ngan kulgini yashirmoq istab yuzini burdi (“Galatepaga qaytish”). Ruhiy holat tasviri berilgan ushbu matnda xursandchilik tushunchasini ifodalashda labga qo’ngan kulgu birikmasi qo’llanilgan. Ushbu ifodani xursandligini yashirmoq birikmasi bilan ham berish mumkin edi. Ushbu holatda yozuvchi ifodalamoqchi bo’lgan fikr badiiy bo’yoqdorligini yo’qotib oddiy ifodaga aylanardi.

D.N.Shmelev badiiy ifoda ekspressiv-obrazlilikni talab qilishi haqida fikr yuritarkan, ko’pincha metafora, epitet, o’xshatish, takror va boshqa vositalar obrazlilikni ta’minlovchi sifatida qaralishini, biroq badiiy matnda obrazli metaforik so’z, ifoda bo’lmasligi, biroq matn ekspressiv-uslubiy bo’yoqdor bo’lishi mumkinligini e’tirof etadi.[8;15]

Murod Muhammad Do’sst xursandchilik tushunchasini ifodalashda metaforik va metaforik bo’lmagan ifodadan ham foydalangan. Masalan, Yelinish kamayadi, xona havosi salqinlanganday bo’ladi, yuzdagi bulutlar arib, kayfiyat xush tortadi (“Lolazor”) gapidagi yuzdagi bulutlar metaforik birikmasi xafahol ko’rinishni, bulutlarning yuzdan arishi xursandchilikni ifodalagan.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Badiiy matnning metaforik ifodalarsiz ekspressiv bo‘yoqdorlikning ta’minlanishi ijodkorning so‘z qo‘llash mahorati bilan bog‘liq. Chunki har qanday so‘zda matnda muayyan uslubiyl imkoniyatlarni yaratish xususiyatlari mavjud bo‘ladi. Ayniqsa, boshqa so‘zlar bilan birikish jarayonida so‘zning ifoda xususiyatlarining kengayib borishi yangi, original ifodalarning vujudga kelishi uchun asos bo‘ladi.

A.N.Vasilyeva nutqiy ifodaviylilikning vujudga kelishida so‘z birikmalarining muhim o‘rni borligini ta’kidlab, so‘z birikmasini –obrazlar birikmasi, so‘z-obraz atomlaridan hosil bo‘lgan o‘ziga xos obrazli molekula sifatida ta’riflaydi.[5;35]

Nutqning til vositalariga boyligi yozuvchining so‘z tanlash mahorati bilan bog‘liq. Badiiy matnlarda tushunchani turli vositalar bilan ifodalash, bir tushunchaning har xil darajasini ifodalashda turli lingvistik vositalardan foydalanish tilning nutqiy imkoniyatlari cheksizligini ko‘rsatadi, biroq tilning nozik ma’no ifodalovchi vositalari ko‘pincha ijodkor mahorati asosida yaratiladi.

Tilda tayyor holda mavjud bo‘lmagan yangi ifoda vositalarining tanlanishi va o‘z o‘rnida maqsadga muvofiq qo‘llanishi individuallikni ta’minlaydi.

Cho‘lponning til mahorati haqida fikr yuritar ekan, prof. M.Yo‘ldoshev shunday yozadi: “Katta mahoratli yozuvchilarning badiiy til borasidagi ustunliklaridan biri shundaki, ular faqat tilda mavjud bo‘lgan, tayyor ma’nodosh so‘zlardangina foydalanib qolmasdan, badiiy tasvir ehtiyojiga ko‘ra ma’nodosh bo‘lmagan so‘zlarni ham shunday qo‘llaydilarki, bu so‘zlar ham matnda xuddi ma’nodosh so‘zlar kabi idrok etiladi”[6;21].

Badiiy asarlarning muhim xususiyatlaridan biri, unda so‘zning asl lug‘aviy ma’nosiga xos bo‘lmagan, boshqa ma’nolarda qo‘llanish imkoniyatlarining mavjudligidir. So‘zning ana shunday boshqa ma’nolarni ifodalash uchun yo‘naltirilganligi tilning ifodaliligini, san’atkorning so‘z qo‘llashdagi lisoniy mahorati qamrovini ko‘rsatadi. Murod Muhammad Do‘st “xursandchilik” ma’nosini labga kulgu qo‘ndirmoq, yuzga xurramlik surtmoq birikmalari bilan ifodalar ekan, uning zidi bo‘lgan “xafachilik” ma’nosini ifodalashda ham original so‘z birikmasi hosil qila olgan.

Badiiy asarning individuallik xususiyatlari asarning badiiy qimmatini belgilovchi muhim omil ekanligini prof. S.Karimov shunday izohlaydi. “Ijodkor moddiy olamni o‘ziga xos tarzda idrok qiladi, tabiatdagi, jamiyatdagi narsa va hodisalarning hali hech kim payqamagan, ilg‘ab yeta olmagan qirralarini ko‘ra oladi, binobarin, hamma uchun iste’molda umumiy deb aytadiganimiz – til yozuvchi qalamida individual tasvir quroliga aylanadi. Shuning uchun har bir badiiy asar chinakam ma’noda xususiydir”[1;20]. Darhaqiqat, ijodkorning moddiy olamni idrok qilishi va uni ifoda etishining o‘ziga xosligi xususiylilikni vujudga keltiradi. Xususiylilik hamma singari tilning umumiste’moldagi ma’no xususiyatlaridan foydalanish bilan emas, aksincha, yozuvchi tomonidan hosil qilinadigan yangi ma’nolar, umumtilda mavjud bo‘lmagan yangi ifodalar natijasida hosil qilinadi.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Badiiy asarda soʻz qoʻllashdagi oʻziga xoslik ijodkor idroki bilan bogʻliq. Ijodkor narsa-hodisani boshqa bir narsa-hodisa bilan bogʻliqlikda tasavvur qilsa, tasavvur qilingan tushunchani ifodalovchi soʻz bilan avvalgi holatni ifoda etadi.

Ijodkorning soʻz qoʻllash mahoratini namoyon etuvchi turli usullar, har xil vositalar mavjud. Soʻz qoʻllashdagi mahoratni koʻrsatuvchi muhim holatlardan biri yangi soʻzlar hosil qilish va uni matn mazmuniga mos holda qoʻllashdir.

Soʻz ijod qilish badiiy nutq jarayonidagina vujudga keladi, biroq barcha yozuvchilar ijodida ham yangidan hosil qilingan soʻzlar boʻlavermaydi. Shunday ekan, soʻz hosil qilish ijodkorning individual uslubi bilan bogʻliq.

Yangi soʻz hosil qilish tilning ichki imkoniyatlari asosida vujudga kelsa, ularning baʼzilari adabiy til normalariga moslashib, tilga singib ommalashib ketishi ayrim yasamalar esa muayyan nutqqa xosligicha qolishi mumkin. Har ikkala holatda ham yangi yasalgan yasama matn uchun yo nomlash vazifasida qoʻllanilgan, yoki uslubiy vazifa bajarishga qaratilgan boʻladi.

Professor M.Yoʻldoshev badiiy matnning badiiy-estetik butunlik sifatida murakkab va serqatlam hodisa ekanligini izohlar ekan, shunday yozadi: “Badiiy asarda mutlaqo oʻziga xos, goh ochiq, goh yashirin, turli ishoralar, tag maʼnolar, kosa tagida nimkosalar bilan shamoyil topgan mazmunning maʼnosini toʻgʻri anglash maʼnaviy-madaniy, aqliy-hissiy va lisoniy-estetik faoliyat natijasida mumkin boʻladi”[6;10]. Bu bilan olim badiiy matnni idrok etishning murakkabligini, unda uchraydigan til vositalari maʼnolarining ochiq va yashirin tarzda namoyon boʻlishini nazarda tutadi. Chunki badiiy asarlarda til vositalarining turli-tumanligi, koʻchma maʼnoli va koʻp maʼnoli soʻzlarning qoʻllanilishi, sinonim soʻzlar asosida nozik maʼno ifodalanish holatlari matnning mazmuni koʻpgina hollarda botiniy holda boʻlishini taqozo etadi. Bu holat matn mazmunini toʻgʻri tushinishga va unda qoʻllanilgan soʻz maʼnolarini toʻliq anglashga toʻsqinlik qiladi.

Yozuvchi adabiyot jonkuyari boʻlishi bilan birgalikda til vositalarini ham avaylab ishlatadigan tildagi mavjud imkoniyatlardan keng foydalana oladigan fidokor ijodkordir.

Yozuvchining umumxalq tilining boy uslubiy boʻyoqdor vositalariga tez-tez murojaat qilishi, shu vositalar orqali oʻz asari tilining jozibadorligini taʼminlashi uning tilga boʻlgan munosabatini yorqin gavdalantiradi. Yangi soʻzlarning yasalishida soʻz hosil qilishning qonun-qoidalariga qatʼiy rioya qilinadi. Badiiy ijodda yangi soʻzlarning yaratilishi tabiiy va ijodkor ehtiyojining natijasidir. Badiiy tasvirning mohiyati unda kutilmagan, tabiiy boʻlmagan yangi ifodalarning koʻplab qoʻllanilishini talab qiladiki, bu holat badiiy matnda yangi soʻzlar yasalishi uchun imkon yaratadi.

Yangi yasamalar dastlabki qoʻllanilgan matnda qolib ketishi yoki faollashib umumxalq tiliga oʻtib ketishi soʻz yasallash asosining umumxalq tilida mavjudligi va yangi yasama soʻz maʼnosining xalqning turmush tarzini qay darajada ifoda eta olishi bilan bogʻliq. Xalq hayotini ifodalovchi muayyan tushunchalarni ifodalashda qulay, sodda, tushunarli soʻz boʻlmasa yoki

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

muayyan tushunchani ifodalovchi soʻz tilda mavjud boʻlmasa, oʻsha maʼnoni ifodalovchi yangi yasama tilda ommalashib boradi.

Bunday holatlarda yozuvchi ifodadorlik, ekspressivlikni kuchaytirish maqsadida soʻzlarning maʼno yaqinligi, maʼnodoshligi, salbiy yoki ijobiy maʼnoli ekanligidan foydalangan holda ularni ketma-ket keltirish asosida fikrning badiiy taʼsirchanligini oshiradi. Yozuvchi ifodaning ushbu shakli uchun ham soʻzlarni tanlaydi. Fikrning butun nozikligi bilan ifodalash, aytilmoqchi boʻlgan fikrning toʻgʻriligi va aniqligini izohlash uchun uyushib keluvchi soʻzlar qatoridan foydalanish yozuvchi asarlarida koʻplab uchraydi. Ifoda jihatidan bir-birini toʻldirib keluvchi soʻzlarni ketma-ket qoʻllash asosida fikrga tinglovchining diqqati jalb etiladi, aytilmoqchi boʻlgan fikrning muhimligi taʼkidlanadi, fikrning badiiy boʻyoqdorligi taʼminlanadi. Masalan, ...bu oʻrtoq –zamonga munosib inson, halol, pokiza, zakiy va tadbirkor, men bu oʻrtoq bilan yonma-yon ishlayotganimdan baxtiyorman. (“Lolazor”) gapida zamonga munosiblikning belgisi sifatida shaxsning toʻrt xususiyati: halollik, pokizalik, zakiy va tadbirkorlik belgilari ajratiladi. Shu belgilarni ifodalashda shaxsning yaxshi xislatlarini namoyon etuvchi halol, pokiza, zakiy, tadbirkor soʻzlari qoʻllaniladi. Mazkur gapda shaxsning zamonga munosibligini aks ettirish uchun yuqorida keltirilgan belgilardan bittasi keltirilishi mumkin edi. Biroq yozuvchi zamonga munosiblikni shaxsdagi bitta ijobiy xususiyat bilan belgilamaydi, bunday shaxslarda bir necha ijobiy xususiyatlar mavjud boʻlishini taʼkidlaydi va shu xususiyatlarni bildiruvchi soʻzlar qatorini keltiradi. Koʻrinadiki, bir-biriga umumiy ifoda jihatidan yaqin boʻlgan soʻzlar qatori ham yozuvchi uchun fikrni yorqin ifodalash vositasidir. Matnda umumiy maʼnosi jihatidan bir-biriga yaqin boʻlgan soʻzlar qoʻllanganda, ularning har biri ifodalaydigan maʼno alohida ajratib koʻrsatiladi, natijada ifodadagi ekspressivlik yana kuchayadi.

Bu holat tilda badiiylikka xizmat qiluvchi vosita va usullar koʻpligini koʻrsatadi. Ana shu xazinadan har bir ijodkor oʻz uslubiga xos holda foydalanib, badiiy–taʼsirchan fikr ifodalashi orqali oʻz mahoratini namoyon etadi.

Akademik I.Qoʻchqortoyev badiiy adabiyotda soʻz obraz, manzara yaratish uchun material boʻlishi haqida fikr yuritir ekan, hayotdagi maʼlum harakat, manzara va holatni yorqin ifodalaydigan soʻzlarni topish va uni asar gʻoyasi, obraz ruhi va mantigʻiga moslab ishlatish yozuvchining mahorati ekanligini qayd qiladi[4;20]. B.Yoʻldoshev badiiy asarda til vositalarining uch munosabat birligi asosida namoyon boʻlishini quyidagicha izohlaydi:

- a) voqelikdagi predmet va hodisalarga munosabat;
- b) soʻzlovchining, insonning oʻz orzu-intilishlari, his-tuygʻulari, fikrlariga munosabat;
- v) muayyan predmet, voqea-hodisani nomlash, koʻrsatish va estetik baholash xususiyatiga egalik[7;40]. Koʻrinadiki, badiiy matnda qoʻllaniladigan soʻzning nutqiy vazifalari koʻp boʻlganidek, maʼno ifodalash imkoniyatlari ham keng. Soʻzdagi bu imkoniyatlar maʼno ifodalashda, obraz yaratishda namoyon boʻlar ekan, bu holat nutqdagi boshqa soʻzlar taʼsirida

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

bo‘ladi. Badiiy uslubni vujudga keltiruvchi muhim vositalardan biri yozuvchining so‘z ustida ishlashi, til vositalaridan nutq jarayonida mahorat bilan foydalanishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Karimov S. O‘zbek tilining badiiy stili-Samarqand:Zarafshon,1992.-B.26.
- 2.Murod Muhammad Do‘st. “Galatepaga qaytish yohud saodatmand G‘aybarov rivoyati”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2009.
- 3.Murod Muhammad Do‘st. “Lolazor”. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016.
- 4.Qo‘chqortoyev I. Badiiy nutq stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1976. – B. 27.
- 5.Vasilyeva A.N. Xudojestvennaya rech. – Moskva, Russkiy yazik, 1983, s. 52.
- 6.Yo‘ldoshev M. Cho‘lpon so‘zining sirlari. – Toshkent: Ma‘naviyat,2002. –B. 16.
- 7.Yo‘ldoshev B. Badiiy asar tili va uslubini o‘rganish. O‘zbek tili stilistikasi va nutq madaniyati masalalari. – Samarqand, 1980. – B. 49-50.
- 8.Shmelev D. N. Slova i obraz. – M.: Nauka, 1964, S. 38.

E‘TIBORNING OG‘IRLANISHI

Sohiba Tohirova

Zamonaviy insonning ichki boshlig‘i va uni to‘ldirish yo‘llari

Ko‘zingiz ochilgan zahoti qo‘lingiz telefonga borayaptimi?

Quloqlaringiz novbatdagi bildirishnomani “ding”i eshitiladimi?

O‘zingiz sezmasdan, kuningiz boshqalarning hayotini kuzatish ,izohlarga javob berish ,tasodifiy videolarni tomosha qilish bilan boshlanadimi?

Agar bu savollarga javobingiz “ha” bo‘lsa – siz yolgiz emassiz .

Biz zamonaviy insonlar -e‘tibor asrining qurbonlarimiz .

Diqqatimiz qimmatbaho tanga bo‘lsa ,bugun uni kim ko‘proq ,tezroq o‘girlasa, o‘sha yutadi .Ammo bu yutuq emas .Bu -yoqotishdir .E‘tiborni yo‘qotish -o‘zini yo‘qotishdir .Va aynan mana shu holat – zamonaviy insonni ich -ichini yemirmoqda

E‘TIBOR -RUHIMIZNIG TOMIRI

E‘tibor bu – ko‘rinmaydigan kuch.U bizni asosiy ishga yo‘naltiradi va bog‘laydi.Agar biz uni tarqatib yuborsak ,o‘zimiz ham tarqalib ketamiz.

Tasavvur qilib ko‘ring,kaftingizda biz hovuch suv bor va sizning maqsadingiz uni to‘kmaslik. shu vaqta siz e‘tiboringizni boshqa narsalarga yo‘naltirsangiz ,suv to‘kilgani kabi sizning hayotdagi maqsadingizdan sizni chalg‘itadigan keraksiz axborotlar ham huddi shunday sizni maqsadingizdan chalg‘itadi.

E‘tiborimizni qanday qilib og‘irlashmoqda?